



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT SHAHAR PEDAGOGLARNI
YANGI METODIKALARGA O'RGATISH
MILLIY MARKAZI**



***"Hayot davomida ta'lim" paradigmasi diskursida
andragogikaning kompetensiyaviy imkoniyatlari***

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI
TOSHKENT, 2024-YIL 15-MAY**

TOSHKENT-2024



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**

**TOSHKENT SHAHAR PEDAGOGLARNI YANGI
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI**

**“HAYOT DAVOMIDA TA'LIM” PARADIGMASI DISKURSIDA
ANDRAGOGIKANING KOMPETENSIYAVIY IMKONIYATLARI**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

2024-yil 15-may

**КОМПЕТЕНТНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ АНДРАГОГИИ В
ДИСКУРСЕ ПАРАДИГМЫ «НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ»**

**МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ**

15 мая 2024 г.

**COMPETENT OPPORTUNITIES OF ANDRAGOGY IN THE
DISCOURSE OF THE "LIFE-LONG EDUCATION" PARADIGM**

**MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND
PRACTICAL CONFERENCE**

May 15, 2024

TOSHKENT-2024



MUNDARIJA

1.	So'z boshi.....	3
2.	Maxmudov Abdulxalim Xamidovich. RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA DIDAKTIKANING METODOLOGIK ASPEKTLARI.....	6
3.	Delan Sarhang, Bnar Karim, Abdullah Kurudirek. CHALLENGES AND SOLUTIONS IN TEACHING EXACT AND NATURAL SCIENCES DURING THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION.....	10
4.	Моҳира – Халикова. XXI – АСР – ТАЪЛИМИНИНГ КОНЦЕПТУАЛ ИМПЕРАТИВЛАРИ.....	15
5.	Raximov Ixomjon Abdullayevich. UZLUKSIZ MALAKA OSHIRISH TIZIMINI TASHKIL ETISHDA FANLARNI SAMARALI O'QITISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI.....	23
6.	Islam El Hadary. NAVIGATING THE DIGITAL FRONTIER: CHALLENGES AND SOLUTIONS IN TEACHING SCIENCE AND TECHNOLOGY.....	28
7.	Мочкина Анна Ильинична. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РОСТА ПЕДАГОГОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ.....	32
8.	Мусаев Жахонгир Паязович. ГЕОГРАФИЯ ЎҚИТИШНИНГ ТАЪЛИМИЙ, ТАРБИЯВИЙ ВА РИВОЖЛАНТИРУВЧИ МАҚСАДЛАРИ..	41
9.	Akbaraova D.BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINING KASBIY – MAHORATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA – PEDAGOGIK – TEXNOLOGIYA VA METODNING AHAMIYATI.....	52
10.	Eraliyev Xalimjon Alimbekovich. RAHBAR VA PEDAGOG XODIMLARINING BILIM – SAMARADORLIGINI – KO'TARISHDA – MALAKA – OSHIRISH TIZIMINING O'RNI.....	59
11.	Fayziyeva Dilduza Kurbonaliyevna. KREATIV YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ESTETIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH.....	63
12.	Haydarov Yuldash Hazratovich. O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISHDA FANLARARO INTEGRATSIYANING ROLI	67
13.	Hayitova Oydinoy Po'latbekovna. BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHI TALABALARI UZLUKSIZ TA'LIM Olish PARADIGMALARI YANGILANISHI.....	72
14.	Kabilov Davron Kozimovich.TA'LIM JARAYONIDA HAYOTIY KO'NIKMALAR VA IXTIROCHILIK USULLARININING AHAMIYATI.....	76
15.	Karimov Hamidjon Olimjonovich. MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH OMILLARI VA IMKONIYATLARI.....	80
16.	Ko'makova Dilshoda Shirinqulovna. O'QUV JARAYONING BOSQICHI VA O'QUV MATERIALINING MOHIYATIDAN KELIB CHIQQAN HOLDA TURLI MURAKKABLIKDAGI O'QUV MATERIALLARIDAN FOYDALANISH- PEDAGOGIK KREATIVLIKNING MUHIM JHATI.....	85
17.	Kuchimov Ma'ruf Kuchimovich. OLIY – TA'LIM MUASSASALARI BITIRUVCHILARINI – EKSPERT – BAHOLASH – SIFATINI – TA'MINLASH TIZIMI.....	89
18.	Maxmuda Yuldasheva. MAKTABDA – O'QUVCHI – IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA – EVRISTIK – O'QITISH – USULLARIDAN FOYDALANISH.....	93
19.	Ortiqov Aziz Xursonali o'g'li. TA'LIM MUHITIDA IJTIMOIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH UCHUN PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK SHART- SHAROITLAR.....	100

nashr etilgan Jyurnal havola orqali mavjyd: <http://t-science.org/axivDOI/2020/03-83.html>

3. Fozilov A. Sh. Kychimov M. K. "axborot tizimlarida axborotni qayta ishlashni tizimli tahlil qilish va optimallashtirish" / xalqaro ilmiy-amaliykonferensiya/sahifalar:127-130//http://doi.org/10.37057/U_6

4. Kychimov M. K. yniversitet bitiruvchilarining samarali bandligini boshqarish algoritmi va dasturiy paketini ishlab chiqish. Iqtisodiyot tarmoqlari innovation rivojlanishida axborot-kommynikasiya texnologilarining axamiyati Respyblika ilmiy-texnik anjymanning ma'ro'zalar to'plami 1-qism, 2021 Toshkent. -B. 53-55.

MAKTABDA O'QUVCHI IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA EVRISTIK O'QITISH USULLARIDAN FOYDALANISH

Maxmuda Yuldasheva

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qitishning evristik usullari, evristik yondashuvlar va ularga qo'yiladigan psixologik, pedagogik, metodik talablar hamda adabiyot darslarida o'quvchilarni ijodkorlikka, tafakkur qilishga va mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayonlari tahlil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, uni innovatsion asosda rivojlantirish, o'z oldimizga qo'ygan ko'p qirrali va murakkab vazifalarni amalga oshirish maqsadida biz zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, har qanday vaziyatda ham mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, intellektual salohiyatli yuksak yosh kadrlarga davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vazifalarni ishonib topshirmoqdamiz". Aynan intellektual salohiyatli, zamonaviy va kreativ fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash hamda ularga sifatli ta'lim berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida adabiyot darsligida berilgan badiiy asarlarni o'rgatishda ta'lim oluvchilarning yoshi, hayotiy tajribasi, saviyasi, tasavvur qila olish ko'nikmasi va asar bilan tanishish jarayonida paydo bo'lgan ruhiyati hisobga olinadi. O'quvchi badiiy asarni o'rganish jarayonida asar qahramonlari holatlarini ich-ichidan his qila olmasa, ularda adabiyotga, badiiy asar mutolaasiga bo'lgan qiziqish susayadi.



Bu mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiy asarlarni o'qitishda o'quvchilarni ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga, ularda ijodiy faollikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak.

O'quvchilarni ijodkorlikka yo'naltirish muammosi ilmiy adabiyotlarda eng ko'p muhokama qilinadigan masalalardan biridir. Ushbu muammoni o'rganish, yanada taraqqiy ettirish ishlari XX asrning birinchi yarmida jadal olib borildi. Ushbu tarixiy davrda unga qiziqish ko'plab mualliflar tomonidan ko'rsatilgan, ular orasida B.A. Lezin (1907), A.M. Evlaxov, A. Puankare, K. Engelmeyer (1910), I.I. Lapshin, F.Yu. Levinson-Lessing (1922–1923), S.O. Gruzenberg (1923), V.M. Behterev (1924), V.P. Polonskiy, P.M. Jeykobson (1924) kabi olimlar bu masalada sermahsul izlanishlar olib borganlar. Yuqorida nomlari keltirib o'tilgan olimlar tomonidan bajarilgan ishlarning aksariyati natural-falsafiylikka tegishli ijodkorlikni anglash yoki ilmiy-texnik ijodkorlikni rivojlantirishdan iborat edi.

Shuni qayd etish kerakki, olib borilgan qator ilmiy tadqiqotlarda ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligi va erkin fikrlay olishini ta'minlash muammosi hamda adabiyot darslarida ijodiy individuallikni rivojlantirish masalalari keng o'rganilgan. Shunday tadqiqotlar sirasiga Ya.A.Ponomarevning asarlari, P.I.Pidkasistiyning shu mavzuga oid izlanishlari, L.M.Fridmanning psixodidaktik tadqiqotlari hamda P.Ya.Galperin, V.I.Zagvyazinskiy, A.Z.Zak kabi qator olimlarning asarlarini kiritish mumkin.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Ijodkorlik va sezgi psixologiyasi bo'yicha mutaxassis sifatida tanilgan hamda rus psixologiyasining metodologiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan olim Ya.A.Ponomarevning fikriga ko'ra "Ijod – materiya rivojining zaruriy sharti bo'lib, u yangi shakllarning paydo bo'lishi bilan kechadigan ijodiyot turlarining almashinuvi jarayonidir".⁹ Demak, ushbu qarashni yanada tushunarliroq qilib tatbiq etadigan bo'lsak, inson tafakkurini rivojlantirishning eng yuqori darajasi

⁹ Пономарев, Я.А. Знания, мышление и умственное развитие. – Москва: Просвещение, 1967. 78-с.



yaratuvchanlikda, ijodkorlikda yaqqol namoyon bo'ladi va, aynan, mana shu ijodiy faoliyat orqali o'quvchi o'z imkoniyatini mustaqil namoyon qila oladi.

Ikkinchi bir manbada esa ijodga boshqacha bir ta'rif beriladi. Unga ko'ra, ijod – o'ziga xosligi, betakrorligi hamda ijtimoiy-tarixiy noyoblighi bilan sifat jihatidan yangi narsalarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyat turi sifatida e'tirof etiladi. Sezganingizdek, bu ta'rifda ijod mahsuli bo'lmish – kashfiyotlar nazarda tutilmoqda.

Maktabda adabiyot o'qitishning ijtimoiy, ilmiy, siyosiy, pedagogik va psixologik muammolari haqida N.I.Kudryashevning "Adabiyot metodikasining nazariy asoslari", V.I.Kan-Kalik hamda V.I.Xazanlarning "Maktabda adabiyot o'qitishning pedagogik-psixologik asoslari", Amerika olimlari R.Uellek va A.Uorenlarning "Adabiyot ilmining tamallari", ozarbayjonlik metodist A.Ahmedov, tojik usuliyotchilari M.Qozijonov, A.Vahhobov, gruzin olimlari L.Xuchulava, M.Kostava, latish metodisti D.Ausekle kabilarning tadqiqotlarida fikr yuritilgan edi.¹⁰

Bu ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, adabiy ta'limning turli nazariy muammolari turli davrlarda muayyan darajada tadqiq etilgan. Ana shu masalalarni tadqiq hamda amaliyotga tatbiq etish jarayonida nafaqat fanda sezilarli darajada olg'a siljish, balki metodik qarashlar takomillashuviga ham erishilgan.

O'quvchilarni ijodiy faollikka, ijodkorlikka yo'naltiruvchi Evristik ta'lim metodi bo'yicha quyidagi metodist olimlar ham samarali izlanishlar olib borishgan. Jumladan, S.V. Stolbunova, L.M. Perminova, Ya.A. Ponomarev, N.S. Leytes, V.S. Shubinskiy, P.Ya. Galperin, V.I. Zagvyazinskiy, A.Z. Zak, o'zimizning tadqiqotchi-olimlardan J.Tursunov, G.Ne'matova, N.S.Mamatov, A.R. Hamroyevlarning asarlarida bolalar ijodkorligi bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Boshqa qator ilmiy tadqiqotlarda esa ta'limda o'quvchilar faolligi va dars jarayonida mustaqil fikrlay olish ko'nikmasiga egaligi muammosi keng

¹⁰ Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. –Toshkent.2006. Avtoreferat. –B.5. 73-bet



o'rganilgan. Shunday izlanishlar sirasiga I.A.Allayorov, V.M.Karimova, R.N.Sunnatova, R.N.Tojiboyeva kabi qator olimlar o'tkazgan tadqiqotlar kiradi.

Rus olimasi S.V.Stolbunova bir maqolasida "Insonning ichki olami, kechinmalarining estetik hissiyotlar bilan bog'liqligi, go'zal hissiyotlarning ijodkorlikka – ijodiy fantaziyaga olib kelishi"ni ishonarli faktlar bilan tavsiflaydi.¹¹

Evristik yondashuv bo'yicha fizika, matematika kabi fanlar doirasida ma'lum izlanishlar olib borilgan. Biroq adabiy ta'limda evristik yondashuv asosida o'qitish asoslari alohida tadqiq etilmagan.

Ayni vaqtda zamonaviy didaktika tamoyillariga asoslangan evristik metodlar yordamida o'quvchilarda ijodiy izlanuvchilikka xos sifatlarni shakllantirishga qaratilgan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shunday ekan, adabiy ta'limda evristik yondashuvga qo'yiladigan psixologik, pedagogik, metodik talablar qanday bo'lishi kerak?

Ma'lumki, Evristik metod o'quvchilarda topqirlikni, faollikni rivojlantirishga qaratilgan o'qitish metodi hisoblanadi.

An'anaviy ta'limda o'quvchi ta'lim mazmunini saralashda amalda ishtirok etmaydi. Ta'lim jarayonidagi ijodkorlik faoliyatida esa o'quvchi ta'limning yangi mazmunini saralashda ishtirok etadi;

bu jarayonda esa bilimning hajmi, malakasi, faoliyat turlari hamda o'quvchining foydalaniladigan usullari cheklanmagan bo'ladi.

Psixolog olim V.A.Lektorskiy ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida vujudga kelishini isbotladi:

- tafakkurning mustaqilligi;

- o'quv materialining o'zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi;

- standart bo'lmagan vazifalarni hal qilishda, aqliy chamalashning (topqirlikning) tezligi;

- o'rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo'lmagan narsadan muhimini ajrata bilish.¹²

¹¹ Столбунова С.В. Развитие критического мышления. Апробация технологии. Журнал «Русский язык». Ярославль. №28, 2003. –С.63.

¹² Лекторский В. А. «Субъект, объект, познание». – Москва: Наука, 1980. – 358 с.



Olimning yuqoridagi tadqiqotidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilardagi yashirin iste'dodlarni yuzaga chiqarish hamda o'z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish davlatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri – kelajakda ijtimoiy faol, yuksak salohiyatli, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan va o'tkir zehqli, raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish g'oyasiga mos keladi.

Adabiy ta'limda evristik yondashuvga qo'yiladigan psixologik talablar quyidagicha bo'lishi kerak:

- o'quvchining ta'limdan keyingi hayotida amaliy ishlashi uchun zarur bo'lgan bilimlarga o'qitish;
- ta'lim oluvchining yoshi, ijtimoiy-psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- ta'lim va tarbiyani kasbiy yo'naltirilganligi;
- ta'limni fan, ijtimoiy va ishlab chiqarish faoliyati bilan uzviy bog'lanishi.

Biz o'z tajribamiz, pedagogik faoliyatimiz davomida ko'p marotaba duch keladigan adabiyot darslaridagi muhim muammolardan biri bu o'quvchi tomonidan badiiy asarni idrok etish bilan bog'liq psixologik muammolardir.

Ma'lumki, bu o'ta murakkab jarayon bo'lib, bevosita ta'lim oluvchilarning estetik, kitobxonlik va hissiy tajribalari bilan bog'liqdir. Masalan, o'quvchi tomonidan biror asarning qabul qilinishi jarayonida, albatta, u o'sha asar voqealari bo'lib o'tgan joy, tarixi, o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar haqida ham qisman bo'lsa-da ma'lumotga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bu esa asar voqealari tasvirlangan davrdagi mavjud bo'lgan qoidalar, qonunlar hamda qahramonlar harakati, voqealar rivoji o'quvchilar tomonidan birmuncha osonroq qabul qilinishiga ko'mak beradi.

Hozirgi davrda psixologiya sohalarining kengayishi, bu fan berayotgan bilimlardan ijtimoiy turmushda, ishlab chiqarishda, tibbiyotda, ta'lim va tarbiya jarayonida foydalanish ehtiyojining ortishi ushbu fanning mavqei, nufuzi yanada oshayotganligidan dalolat beradi.



Adabiyot fanini o'qitishda, o'tilgan badiiy asarlarni mustahkamlashda metodik talablardan biri dars jarayonida turli xil o'yinlardan ham samarali foydalanish mumkin, sababi didaktik o'yinlar ijodiy faoliyatning bir shaklidir. Bu jarayonda o'quvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglashi asosida emotsional – hissiy hamda intellektual-axloqiy jihatdan rivojlanadi.

Dars jarayonida tashkil etiladigan o'yinlar, ularning ijodkorligini shakllantirishdagi o'rni haqida psixologiya, etnografiya, madaniyat, pedagogika fanlarida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. XIX asrning oxirida nemis olimi K. Gross o'yinlarni tizimli o'rganishga harakat qilgan bo'lsa, nemis psixologi K.Byuller o'yinlarni “qoniqish hosil qiluvchi” faoliyat sifatida tadqiq etadi.

L.S. Vigotskiy, A. N. Leontyevlar fikricha, o'yinlarni nazariy jihatdan ijtimoiy tabiatiga ko'ra ma'lum faoliyatiga yo'naltirilganligi bilan bog'lab, tadqiq etgan bo'lsalar, D.B.Elkonin shaxs xulqini boshqarishni tarkib toptirib, uni takomillashtiruvchi faoliyat sifatida talqin etadilar. Lekin o'yinlarni yagona va eng muhim asosiy xususiyati uning ta'limdagi ahamiyatliligidir. O'yinlarda bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi.

O'yinlar ikki tomonlama xarakterga egaligi uning dramatik san'atga ham mosligidir. Bir tomondan o'yin ishtirokchilari uni amalga oshirishda muayyan nostandart vazifalar bilan bog'liq haqiqiy faoliyatni bajaradilar, ikkinchi tomondan esa o'yin jarayonida ba'zan ma'suliyatni his etgan holda haqiqiy vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyat ham kasb etadilar.

Masalan, adabiyot darslarini o'tishda, darslarni tashkil etishda o'tilayotgan mavzu bo'yicha quyidagi didaktik o'yinlarni qo'llash orqali dars samaradorligiga erishish mumkin: “Men bo'lajak musavvirman” o'yini. Bu o'yin orqali o'quvchilarda psixologik jihatdan zavqlanish hissini rivojlantirish bilan birga ularni ijod qilishga undaladi. Ushbu jarayonda o'quvchilarga 7 daqiqa davomida o'qilgan asardagi tabiat tasviri yoki qahramonlar xarakterini ochib berishda yordam beruvchi, tasavvuridagi portretni yaratish, illyustratsiya chizish topshirig'i beriladi. To'g'ri, bu o'yinda o'quvchilar tomonidan san'at asari yaratilmasligi



mumkin, ammo berilgan topshiriq orqali asar mohiyati va qahramonlar holatini chuqurroq his etishlariga erishiladi.

Shunday qilib, evristik ta'lim o'quvchining uchta integratsion qobiliyati ya'ni ijodiy qobiliyati, bilishga doir hamda faoliyatga oid qobiliyatiga tayanadi. Demak, evristik ta'lim deyilganda o'quvchining ta'lim samaradorligini ta'minlashga qaratilgan faoliyat va harakatni amalga oshirishdagi imkoniyatlar majmuasi tushuniladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta'lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor yo'nalishlarini izlanuvchi ta'lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta'limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Пономарев Я.А. Знания, мышление и умственное развитие. – Москва: Просвещение, 1967. – 262 с.
2. Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. – Toshkent, 2006. Avtoreferat. 73-b.
3. Столбунова С.В. Развитие критического мышления. Апробация технологии. Журнал «Русский язык». – Ярославль. №28, 2003. – С.63.
4. Лекторский В. А. «Субъект, объект, познание». – Москва: Наука, 1980. – 358 с.

TA'LIM MUHITIDA IJTIMOIIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH UCHUN PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR

Ortiqov Aziz Xursonali o'g'li

*Toshkent shahar PYMO'MM "Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi" tasviriy
san'at va chizmachilik fani metodisti*